

## **A LOGICAL APPROACH TO VERIFICATION, EVALUATION AND PROCESSING OF INFORMATION DURING INVESTIGATIONAL JOURNALISM**

**Mehrangiz Vohidovna GANIYEVA**

Lecturer

Faculty of International Journalism

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

## **JURNALISTIK SURISHTIRUV JARAYONIDA AXBOROTNI TEKSHIRISH, BAHOLASH VA QAYTA ISHLASHDA MANTIQUIY YONDASHUV**

**Mehrangiz Vohidovna G'ANIYEVA**

O'qituvchi

Xalqaro jurnalistika fakulteti

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## **ЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД ПРИ ПРОВЕРКЕ, ОЦЕНКЕ И ОБРАБОТКЕ ИНФОРМАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ЖУРНАЛИСТСКОГО РАССЛЕДОВАНИЯ**

**Мехрангиз Вохидовна ГАНИЕВА**

Преподаватель

Факультет международной журналистики

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан [ganiyevamehrangiz@gmail.com](mailto:ganiyevamehrangiz@gmail.com)

### **For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

G'aniyeva M.V. Mehnat migratsiyasi mavzusining ommaviy axborot vositalarida iqtisodiy kontekstda yoritilishi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 6. — B. 233–247.

<https://doi.org/10.36078/1767726131>

**Received:** October 10, 2025


**Accepted:** December 17, 2025

**Published:** December 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Abstract.** The article provides a comprehensive analysis of the central role of logical reasoning in verifying and evaluating information during the process of journalistic investigation. It examines the internal and external forms of fact-checking, their historical origins, and the stages of their integration into professional journalistic practice. The study demonstrates that the rapid growth of disinformation and cyber fraud on social networks poses a serious threat to society, undermines information security, and weakens public trust in the mass media. Using investigation cases from Kun.uz and the Subyektiv project, the article illustrates the practical application of fact-checking, revealing how false information is exposed and how manipulative techniques are identified. Furthermore, the article outlines the legal, ethical, and technical requirements for journalists, as well as systematic methods for verifying sources, comparing evidence, and conducting logical analysis. A structured list of guiding questions for planning an investigation — including the accuracy of evidence, transparency of sources, and the availability of conditions needed to continue the inquiry — is also proposed. In addition, the article analyzes the operational mechanisms of cybercriminal groups, methods they use to conceal financial flows, and common fraud schemes on online platforms. It offers practical recommendations for identifying these threats. In conclusion, the article emphasizes the importance of protecting information sources and strictly adhering to ethical

standards at all stages of journalistic investigations, supported by concrete practical examples.

**Keywords:** fact-checking; investigative journalism; disinformation; cyber fraud (scam); top starter; legal immunity.

**Annotatsiya.** Maqola jurnalistik surishtiruv jarayonida axborotni tekshirish va baholashda mantiqiy yondashuvning markaziy ahamiyatini keng yoritadi. Unda faktchekingning ichki va tashqi turlari, uning tarixiy ildizlari hamda jurnalistika amaliyotiga kirib kelish jarayoni izchil tushuntiriladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan dezinformatsiya va kiberfiribgarlikning keskin o'sishi jamiyat uchun jiddiy xavf tug'dirayotgani, bundan tashqari ommaviy axborot vositalariga bo'lgan ishonchni susaytirayotgani dalillar va aniq misollar bilan asoslanadi. Maqolada Kun.uz va Subyektiv loyihalari kabi surishtiruvlar misolida faktchekingning amaliy qo'llanilishi, noto'g'ri ma'lumotlarning qanday fosh etilgani, manipulyativ yondashuvlarning qanday aniqlangani batafsil tahlil etiladi. Shuningdek, jurnalistlarga qo'yiladigan huquqiy, axloqiy va texnik talablar, manbalarni tekshirish, dalillarni solishtirish va mantiqiy tahlil usullari tizimli ravishda bayon qilinadi. Surishtiruv rejasini tuzish jarayonida e'tibor berilishi lozim bo'lgan savollar ro'yxati: dalillarning aniqligi, manbalar ochiqligi, tergovni davom ettirish uchun zarur imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi kabi mezonlar ham taklif etiladi. Bundan tashqari, maqolada kiberjinoyatchilar guruhlarining ishlash mexanizmlari, moliyaviy oqimlarni yashirish usullari va onlayn platformalarda qo'llaniladigan aldov sxemalarini aniqlash bo'yicha amaliy tavsiyalar keltiriladi. Bu tavsiyalar jurnalistlarga zamonaviy tahdidlarni fosh etishda, ularning ishlash mexanizmini tushunishda va keng jamoatchilikning xabardorligini oshirishda muhim yordam beradi. Yakunda maqola surishtiruv davomida axborot manbalarini himoya qilish va etik me'yorlarga qat'iy rioya etish zarurligini alohida ta'kidlaydi hamda mazmunni amaliy misollar bilan boyitadi.

**Kalit so'zlar:** faktcheking; jurnalistik surishtiruv; dezinformatsiya; kiberfiribgarlik (scam); top starter; huquqiy daxlsizlik.

**Аннотация.** Статья анализирует центральную роль логического подхода при проверке и оценке информации в процессе журналистского расследования. Подробно рассматриваются внутренние и внешние формы фактчекинга, его исторические истоки и этапы интеграции в профессиональную журналистскую практику. Показано, что стремительный рост дезинформации и кибермошенничества в социальных сетях представляет серьёзную угрозу для общества, подрывает информационную безопасность и ослабляет доверие к средствам массовой информации. На примерах расследований Kun.uz и проекта Subyektiv демонстрируется практическое применение фактчекинга: раскрываются ложные сведения, объясняются механизмы их разоблачения и описываются способы выявления манипулятивных методов. Кроме того, в статье подробно характеризуются правовые, этические и технические требования к журналистам, а также методы проверки источников, сопоставления данных и проведения логического анализа. Предлагается структурированный перечень вопросов для планирования расследования, включая оценку точности доказательств, степень открытости источников и наличие условий, необходимых для продолжения следствия. Дополнительно анализируются механизмы функционирования групп киберпреступников, методы сокрытия ими финансовых потоков и распространённые схемы обмана на онлайн-

платформах. Приводятся практические рекомендации по выявлению подобных угроз. В заключение подчёркивается важность защиты информаторов и строгого соблюдения этических норм на всех этапах расследования, что подкрепляется конкретными примерами из практики.

**Ключевые слова:** фактчекинг; журналистское расследование; дезинформация; кибермошенничество (scam); топ стартер; правовая неприкосновенность.

## Kirish

Jurnalistik surishtiruv zamonaviy axborot makonida alohida o‘rin tutuvchi, ko‘p bosqichli va murakkab analitik faoliyat turi hisoblanadi. Ushbu jarayonda jurnalist nafaqat faktlarni yig‘adi, balki ularni tekshiradi, baholaydi, solishtiradi va mantiqan qayta ishlaydi. Shu nuqtai nazardan mantiqiy yondashuv jurnalistik surishtiruvning ilmiy asoslanganligi, xulosalarning haqqoniyligi va dalillarning ishonchliligini ta‘minlovchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Global axborot muhitida dezinformatsiya, feyk yangiliklar, manipulyativ axborot oqimlari va kiberjinoyatchilikning kengayib borayotgani fonida jurnalistning tanqidiy fikrlashi, tahliliy ko‘nikmalari va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyati birlamchi ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion kommunikatsiya texnologiyalari tez sur‘atlarda rivojlanayotgan bugungi sharoitda surishtiruv jurnalistikasi jamiyatning axborot xavfsizligini ta‘minlashda muhim omilga aylanmoqda. Shu sababli axborotni tekshirish, baholash va qayta ishlash jarayonlarida mantiqiy yondashuvni qo‘llash masalasi ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarbdir.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — jurnalistik surishtiruv jarayonida axborotni tekshirish, baholash va qayta ishlash bosqichlarida mantiqiy yondashuvning o‘rni va ahamiyatini ilmiy asosda yoritish hamda mantiqiy tahlilning amaliy qo‘llanish mexanizmlarini ko‘rsatib berishdir.

**Tadqiqotning vazifalari.** Maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

— Axborotni tekshirish (faktcheking) jarayonining mohiyati va mantiqiy asoslarini tahlil qilish.

— Dalillarni taqqoslash, manbalarni baholash va ishonchlilik mezonlarini aniqlash.

— Axborotni baholash jarayonida qo‘llaniladigan mantiqiy tamoyillarni yoritish.

— Mantiqiy xatolarning jurnalistik surishtiruvga ta‘sirini ko‘rsatish.

— Axborotni qayta ishlash bosqichida mantiqiy yondashuvning amaliy ko‘rinishlarini izohlash.

— Mantiqiy tahlil asosida surishtiruvning umumiy metodologiyasini shakllantirish.

**Tadqiqotning obyekti** — jurnalistik surishtiruv jarayoni va uning tarkibiy bosqichlarida amalga oshiriladigan axborot bilan ishlash mexanizmlari.

**Tadqiqot predmeti** — axborotni tekshirish, baholash va qayta ishlashda qo'llaniladigan mantiqiy yondashuv, tamoyillar va metodlar majmui.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

— Jurnalistik surishtiruv jarayonida mantiqiy yondashuvning alohida bosqichlarga ta'siri tizimli ravishda tahlil qilindi.

— Faktcheking, dalillarni baholash va axborotni qayta ishlashda qo'llaniladigan mantiqiy tamoyillar aniq nazariy asoslar bilan yoritildi.

— Mantiqiy xatolarning jurnalistik xulosalar sifatiga ta'siri amaliy misollar asosida tushuntirildi.

— Surishtiruvni rejalashtirish va dalillarni tizimlashtirishning mantiqiy modeli taklif etildi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Maqolada jurnalist surishtiruv janri bo'yicha izlanishlar olib borgan o'zbek va xorijlik olimlarining ilmiy ishlari, tahlillari, olib borgan surishtiruvlari o'rganildi. Xususan, X. Do'stmuhammad [Do'stmuhammad 2007], F. Mo'minov [Mo'minov 2008], N. Toshpo'latova [Toshpo'latova 2019], A. Meliboyev [Meliboyev 2023] kabi o'zbekistonlik media tadqiqotchilarning ushbu sohadagi nazariy, metodologik tahlillari aks etgan ilmiy maqolalari, tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

### Asosiy qism

Kirish qismida ta'kidlanganidek, mantiqiy yondashuv surishtiruv jurnalistikasining ilmiy va amaliy asosini tashkil etadi. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida — xususan, "Daryo", "Gazeta.uz", "Kun.uz" kabi platformalarda — so'nggi yillarda olib borilgan tahliliy surishtiruvlar ushbu yondashuvning samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda. Ekologiya, ta'lim, korrupsiya, infratuzilma va ijtimoiy adolat kabi mavzular yoritilgan materiallarda jurnalistlar quyidagi mantiqiy jarayonlarga tayanadilar:

— faktlarni rasmiy hujjatlar bilan ishonchli tarzda tasdiqlash;  
— turli mustaqil manbalar o'rtasida taqqoslash tahlilini o'tkazish;  
— voqealar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash;  
— xulosa va mulohazalarni subyektiv fikrlar emas, balki daliliy asosga tayangan holda shakllantirish.

Mazkur yondashuv surishtiruvning ishonchligini oshiradi, o'quvchida axborotga nisbatan xolis munosabat uyg'otadi hamda materialning ijtimoiy ta'sirchanligini kuchaytiradi.

**Surishtiruv janrining mas'uliyati va xavf omillari.** Zamonaviy jurnalistikada surishtiruv eng mas'uliyatli, murakkab va ba'zan xavfli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki bitta noto'g'ri fakt, tasdiqlanmagan ma'lumot yoki mantiqiy xatolik nafaqat jurnalistning, balki tahririyatning ham obro'siga putur yetkazishi mumkin. Yanada muhimrog'i, bunday xatolik jamiyatning axborot maydonida noto'g'ri qarorlar, chalkash tushunchalar va ishonchsizlikka sabab bo'lishi ehtimoli yuqori. Shu bois surishtiruv jarayonida har bir dalilga tanqidiy va mantiqiy yondashish, manbalarni sinchkovlik bilan tekshirish, ma'lumotlar orasida

bo'lishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklarni aniqlash va ularni izchil tahlil qilish surishtiruvning sifatini belgilovchi hal qiluvchi omillardandir.

**Mantiqiy yondashuvning vazifalari va zarurati.** Jurnalistik surishtiruvda mantiqiy yondashuvning asosiy vazifasi – haqiqatni aniqlash, noto'g'ri yoki manipulyativ ma'lumotlardan himoyalash, mavjud dalillarning ichki izchilligini tekshirish hamda xulosalarning ilmiy asoslanganligini ta'minlashdir. Bunda jurnalist har bir faktni shubha ostida ko'rib chiqadi, uning mazmuni, kelib chiqish manbasi va kontekstini tahlil qiladi. Har bir raqam, hujjat yoki bayonot mantiqan isbotlangan taqdirdagina surishtiruvning yakuniy xulosalariga qo'shilishi mumkin.

Ushbu jihatlar faktchekingning zamonaviy jurnalistikadagi o'rni va ahamiyatini yanada oshiradi. Faktcheking endilikda yordamchi jarayon emas, balki surishtiruvning markaziy metodlaridan biriga aylandi. U orqali jurnalistlar noto'g'ri ma'lumotlarni fosh etadilar, ijtimoiy muammolarning haqiqiy mohiyatini ochib beradilar va jamoatchilikka ishonchli axborot taqdim etadilar.

Jurnalistik surishtiruv janri murakkab jarayon bo'lishi bilan birga, ayni paytda nihoyatda tahlikali ham sanaladi. Negaki, berilgan noto'g'ri ma'lumot yoki kichik bir xato nafaqat jurnalist yoki tahririyatga, balki butun jamiyatga ham zarar yetkazishi mumkin [Kovach 2014: 68]. Shu sababli hujjatlarni tekshirish, ya'ni faktcheking, surishtiruv jarayonining muhim va ajralmas qismiga aylanadi.

Jurnalistik surishtiruvda faktchekingning ahamiyatini aniqlashdan avval, faktcheking tushunchasining o'zi nimalarni anglatishini ko'rib chiqish zarur. Faktcheking — bu hisobot, bayonot va ommaga uzatilayotgan ma'lumotlarning har tomonlama to'g'riligini tekshirish jarayoni hisoblanadi [Graves 2016: 28]. Faktchekingning ikki asosiy ko'rinishi mavjud:

**ichki faktcheking** — noshir yoki tahririyat tomonidan noto'g'ri kontentning chop etilishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan tekshiruv;

**tashqi faktcheking** — jamoatchilikning istalgan a'zosi tomonidan uni shubhalantirgan yoki ikkilantirgan ma'lumotlarning mustaqil ravishda tekshirilishidir [factcheck.org].

Jurnalistik surishtiruvda faktlarni tekshirish ehtiyoji qanday vujudga kelganini tarixiy jarayon ham yaqqol namoyish etadi. XIX asrning 50-yillarida sensatsion gazetalarning ommalashuvi natijasida yolg'on yoki bo'rttirilgan ma'lumotlarning tarqalishi keskin oshdi. Shu davrda jurnalist Kolin Dikey faktcheking byurosini tashkil etib, faktlarni tekshirishning yangi evolyutsion bosqichini boshlab berdi. Keyingi muhim qadam — 1850-yillarda "Associated Press"ning tashkil etilishi bo'lib, unda qisqa, lo'nda va tekshirilgan materiallarga chop etilishi qat'iy tamoyil sifatida belgilangan edi. Shuningdek, Nyu-Yorkda Ralf Pulitser 1912-yilda "Aniqlik va adolatli o'yin" byurosini yo'lga qo'ydi, bu byuro keyinchalik shahar jurnalistikasining mashhur faktlarni tekshirish bo'limiga aylandi. Oradan vaqt o'tib, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan dezinformatsiyalar jiddiy iqtisodiy va siyosiy tahdidga aylandi. Bundan tashqari, noto'g'ri ma'lumotlar va fitna nazariyalarining keng tarqalishi jamiyatda ommaviy axborot vositalariga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirdi. Shu sababli dunyodagi eng yirik media tashkilotlar o'zlarining

maxsus faktcheking platformalarini ishga tushirishdi. Masalan, “The Washington Post”, “Politifact” va boshqa nufuzli OAVlar faoliyatida faktlarni tekshirish alohida yo‘nalish sifatida shakllangan [Elamova 2024].

Mamlakatlar miqyosidagi eng ko‘zga ko‘ringan faktcheking platformalaridan ba‘zilari quyidagilardir: AQShdagi “FactCheck.org”, “PolitiFact” hamda Buyuk Britaniyadagi “Full Fact”. Ushbu platformalar siyosiy bayonotlardan tortib, virusli axborot va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan da’volargacha bo‘lgan ma’lumotlarning haqqoniyligini tekshirib, jamoatchilikka ishonchli munosabat bildiradi.

#### **Jurnalistik surishtiruv janrida faktcheking nima uchun kerak?**

*Auditoriya ishonchini qozonish uchun.* To‘g‘ri va ishonchli ma’lumotlarni taqdim etadigan jurnalistlar jamoatchilik ishonchini qozonadi, bu esa jurnalistning kasbiy obro‘cini oshiradi.

*Qonuniy daxlsizlikni ta‘minlash uchun.* Tekshirilmagan ma’lumotlarni tarqatish jurnalist uchun jiddiy huquqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ya’ni, bitta noto‘g‘ri aytilgan gap yoki noto‘g‘ri kontekst sud jarayonida unga qarshi ishlatilishi, natijada million dollarlik jarima yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishi ehtimoli mavjud. Faktcheking esa jurnalistning qonuniy daxlsizligini ta‘minlashda muhim vosita hisoblanadi [Silverman 2014: 18].

*Manipulyatsiyani aniqlash uchun.* Ba’zi ommaviy axborot vositalari yoki manfaatdor tomonlar o‘zlariga foydali yoki raqobatchilariga zarar keltiradigan ma’lumotlarni ataylab tarqatish orqali jamoatchilik ongiga ta’sir o‘tkazishga urinadilar. Faktlarni tekshirish esa bunday manipulyativ holatlarning oldini olishga yordam beradi [McNair 2009: 14].

*“Kun.uz” surishtiruvi misolida faktchekingning amaliy qo‘llanishi*

“Kun.uz” saytining YouTube kanalida 2022-yili e’lon qilingan “Trening ortidan million — soxta biznes-trenerlar” nomli jurnalistik surishtiruvda Islom Ibrohim, Ikromjon Tojiddinov, Tohir Esanov, Shohruh Dastanov kabi biznes-trenerlarning faoliyati o‘rganilgan. Satirik uslubda yoritilgan ushbu materialda keltirilgan shaxslarning aslida haqiqiy firibgarlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgani faktcheking usullaridan mohirona foydalanilgan holda fosh etilgan.

Jurnalist surishtiruv davomida ushbu uslubni quyidagi tarzda ochib beradi:

**Jurnalist:** — “Gapimiz isboti bilan,” deganlaridek, endi jamiyatimizdagi haqiqiy infoqultibozlardan bir nechtasini nomma-nom tanishtiramiz. Bugungi bosh qahramonimiz — Islom Ibrohim. Uning treninglari qanchalik “samarali” ekanligini isbotlash uchun quyidagi fikrlaridan iqtiboslar keltiramiz.

**Islom Ibrohimning biznes treningidagi nutqi:** — “10 ming dollar deganda hamma katta pulni tushunadi. Ong ostimizga hammamiz yirik summani yuboramiz. Lekin bu unchalik katta pul emas. Bu degani 100 ta narsani 100 dollardan sotish demakdir.”

**Jurnalist:** — “Nima degingiz keladi ensa qotirib. Bunda mahsulot ishlab chiqarish, uning raqobatbardoshligi, soliq va hokazolar haqida umuman so‘z bormagan” [<https://kun.uz/news/2022/05/18/soxta-muvaffaqiyatshunoslik-biznesi-yoxud-trening-ortidan-million#!>].

Shuningdek, jurnalist uning boshqa “misollarini” ham tekshiradi:

**Islom Ibrohimning nutqi:**

— “1872-yili Rojer Freydir ismli marketolog vino sotishning yangicha usulini o‘ylab topgan... U ‘Soat’ nomli vino chiqaradi va o‘z odamlari orqali do‘konlarga uni qayta-qayta so‘ratadi... Do‘kon egalarida talab bor degan tasavvur hosil bo‘ladi...”

Ushbu da‘volar surishtiruv davomida mantiqiy tahlil va faktcheking orqali tekshirib chiqiladi, natijada ularning asossizligi ochiq ko‘rsatiladi.

“Subyektiv” ko‘rsatuvi jurnalistlari tomonidan o‘tkazilgan faktcheking natijalariga ko‘ra, Islom Ibrohim tomonidan keltirilgan ushbu voqea aslida vino bilan emas, balki votka bilan bog‘liq bo‘lgan. Bundan tashqari, voqeani Rojer Freydir emas, balki Nikolay Shustov ismli tadbirkor amalga oshirgani haqida tarixiy manbalarda aniq ma‘lumotlar mavjud. 1872-yilga oid va Rojer Freydirga taalluqli faktlar esa hech qanday hujjatlarda uchramaydi. Shu tariqa, biznes-trenerning ushbu misoli ham asossiz va buzib talqin qilingan ma‘lumot sifatida rad etilgan.

Jurnalist: — Bill Geyts haqidagi quyidagi ma‘lumotni eshitganmisiz? Islom Ibrohim buni ham o‘z auditoriyasiga aytib bergan. Balki ushbu voqeani Bill Geyts choyxonada birga o‘tirgan paytlarida unga shaxsan aytib bergandir...

Islom Ibrohimning biznes treningidagi nutqi:

— “Bir kuni Bill Geyts jurnalistlarga intervyu berayotganda jurnalist so‘raydi: ‘Sizning muvaffaqiyat siringiz nimada?’ Bill Geyts unga imkoniyat beradi: ‘Men sizga chek beraman, xohlagan summangizni yozing, men shu pulni beraman’, — deydi. Jurnalist esa: ‘Hazillashayapsizmi, kerak emas’, — deydi. Shunda Geyts: ‘Ko‘rayapsizmi, siz imkoniyatdan foydalana olmadingiz. Men rostdan ham sizga pul bermog‘chi edim. Siz esa bir lahzada millioner bo‘lish imkoniyatingizni boy berdingiz’, — deydi. Qissadan xulosa shuki, omad kelganda uni ushlab qolish kerak”.

Ushbu voqeani “Subyektiv” ko‘rsatuvi jurnalistlari faktcheking qilganlarida, bu hikoya ham yolg‘on ma‘lumot ekani aniqlangan. Reuters factchecking nashrining ma‘lumotiga ko‘ra, tonggi dasturlardan birida ishtirok etgan Bill Geytsga jurnalist qiz shunchaki ramziy sovg‘a bergan, xolos. Ushbu holat esa internetda “Bill Geyts jurnalist qizga chek taklif qildi” degan ko‘rinishga keltirilib, “fake news” sifatida tarqatilgan [Reuters: 47].

Jurnalist: — Islom Ibrohimning eng muvaffaqiyatli bizneslaridan biri sifatida “Ibro Best” qurilish kompaniyasi tilga olinadi. Xo‘sh, “Ibro Best” qurilish kompaniyasi hozirgacha qanday loyihalarni amalga oshirgan?

“Ibro Best” kompaniyasining rasmiy sahifalariga kirilib, korxona faoliyati haqida ma‘lumot olishga urinishlar natijasida kompaniya 2018-yilda tashkil topgani va ko‘plab loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirgani haqida bayonotlar uchradi. Kompaniya o‘zining Telegram sahifasida bir nechta qurilish loyihalarining rasmlarini e‘lon qilib, ularni aynan “Ibro Best” tomonidan barpo etilgan ob‘ektlar sifatida ko‘rsatgan.

Biroq “Subyektiv” ko‘rsatuvi jurnalistlarining “Gazeta.uz” va “Sputnik” ma‘lumotlari asosida o‘tkazgan faktchekingi shuni ko‘rsatdiki, ushbu rasmlarda berilgan loyihalar “Ibro Best” kompaniyasiga emas, balki “Uzshahar Qurilish Invest” kompaniyasiga tegishli bo‘lgan. Bu holat biznes-trener tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarning yana bir bor haqiqatga mos kelmasligini isbotlaydi.

Kun.uz saytida 2016-yilda e'lon qilingan reklamaga ko'ra, 2-rasmda ko'rsatilgan navbatdagi turar joy obyekti "Qorasaroy" turar joy majmuasi bo'lib, uning "Bauraum Group" kompaniyasiga tegishli ekani aytilgan. "Yangi Uylar" turar joy majmuasi sayti ma'lumotlariga ko'ra, 3-rasmdagi obyektning nomi "Yakkasaroy Residents" bo'lib, uni "Real House" kompaniyasi barpo etgan. Oxirgi rasmda keltirilgan xonadon esa umuman Rossiyada joylashgan. Demak, "Ibro Best" kompaniyasiga tegishli deb ko'rsatilgan ushbu obyektlarning hech biri aslida mazkur kompaniyaga aloqador emas.

"Subyektiv" ko'rsatuvi jurnalisti Jamshidxon Ziyoxonov kompaniya faoliyatini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida "Ibro Best" kompaniyasining rasmiy telefon raqamlariga mijoz sifatida qo'ng'iroq qiladi. Yuqoridagi boblarda aytilganidek, surishtiruv davomida jurnalist zarurat tug'ilganda o'z kasbiy rolini vaqtincha o'zgartirishi mumkin.

**Jurnalist:** — Kompaniya raqamlariga qo'ng'iroq qilganimizda bizga qurilish obyektlari haqida emas, balki investitsiya bilan bog'liq ma'lumotlar aytiladi. Operator qiz bizdan qurilish kompaniyasiga qancha miqdorda investitsiya kiritishimiz mumkinligini so'ray boshladi.

Ushbu suhbat davomida "Ibro Best" kompaniyasining uy qurilishi bilan emas, balki moliyaviy piramida faoliyati bilan shug'ullanayotgani ayon bo'ladi. Masalan, ular taklif qilgan sxemaga ko'ra, agar bir yil davomida 1000 dollar investitsiya qilsangiz, 12 oydan so'ng ushbu summa 1700 dollar ko'rinishida qaytarilishi va'da qilingan. Shuningdek, kompaniyaga kiritiladigan minimal investitsiya miqdori 2000 dollar etib belgilangan. Ta'kidlash joizki, Islom Ibrohimning treninglari 3,5 million so'mdan 5 million so'mgacha bo'lgan narxlarda sotilgan. Ushbu jurnalistik surishtiruv Kun.uz saytining YouTube kanalida 2022-yilda e'lon qilingan edi. Oradan bir yil o'tib, Kun.uz saytida Islom Ibrohimning qidiruvda ekani haqidagi videomaterial ham ommaga taqdim etildi.

**Jurnalist:** — Islom Ibrohim investitsiya kiritish evaziga yiliga 70 foiz daromad va'da qilgani va shu yo'l bilan ko'plab odamlarni chuv tushirgani ma'lum bo'ldi. U aslida odamlarni qanday aldab kelgan?

Surishtiruvga ko'ra, Islom Ibrohim odamlarning ishonchiga kirib, Buxoro shahridagi "Biznes Invest Online School" rahbari sifatida ularni sarmoya kiritishga undagan. Evaziga sarmoyaning 70 foizi miqdorida foyda va'da qilgan  
[<https://www.youtube.com/watch?v=O9XTWHUW7qQ>].

Masalan, Toshkent shahri Olmazor tumanida yashovchi Salimjonova ismli fuqaro 11 ming AQSH dollarini 70 foiz daromad evaziga Ibrohimovga topshirgan. Oradan ma'lum muddat o'tib, ayol aldanganini anglab yetadi va huquq-tartibot organlariga murojaat qiladi. Ammo bu vaqtga kelib Islom Ibrohimov allaqachon mamlakatni tark etgan edi  
[<https://www.youtube.com/watch?v=ayDs-YTHNuU>].

Kun.uz ixtiyoriga kelib tushgan audio va video murojaatlar shuni ko'rsatadiki, "biznes-trener" juda ko'p odamlarni chuv tushirgan. Shundan so'ng jurnalistlarda tabiiy savol tug'iladi: **Islom Ibrohim hozir qayerda?**

Kun.uz jurnalistlari faktcheking asosida uning joylashuv manzilini aniqlashga muvaffaq bo'lishgan. Islom Ibrohim o'zining Instagram sahifasida Kanadada ekani haqida ma'lumot bergan va turli ko'ngilochar maskanlardan olingan rasm hamda videolarni joylashtirgan. Biroq chuqur

faktcheking natijasida uning joylagan aksariyat suratlari Kanada emas, balki Dubay Amirlikida olingani ma'lum bo'lgan.

Masalan, Islom Ibrohim joylagan videolardan birida u "Aigner" nomli do'kon yonidan o'tib ketayotgani aks etgan. Kanadada esa ushbu brendning rasmiy do'koni mavjud emas. Videoda ko'rsatilgan do'kon aslida Dubay Amirlikidagi "Dubai Outlet" savdo markazida joylashgan. Shuningdek, u Telegram kanalida "Kanadadagi holat" deb joylashtirgan surat ham aslida Dubaydagi "Mushrif" bog'ida olingan. Demak, katta ehtimol bilan Islom Ibrohim Kanadada emas, aynan Dubayda bo'lgan va shu yo'l bilan o'z mijozlarini chalg'itishga urinayotgan bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, amalda O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasida ushlab berish (ekstraditsiya) to'g'risidagi shartnoma mavjud bo'lib, 2014-yil 11-noyabrda imzolangan ushbu hujjatga ko'ra qidiruvdagi shaxsni tergovga tortish yoki boshqa tomonga topshirish imkoniyati nazarda tutilgan [*Ekstraditsiya shartnomasi, 2014: 34*].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi matbuot kotibi Shohruh G'iyosov jinoyat ishi tergovi bilan bog'liq ma'lumotlar ommaviy axborot vositalariga berilmasligini bildirgan [*III Matbuot xizmati ma'lumoti*].

Bugungi kunga qadar Islom Ibrohim 200 ga yaqin odamdan qariyb 500 ming dollarga teng mablag'ni chuv tushirgani ma'lum bo'ldi. Surishtiruv olib borayotgan jurnalistda bir qator dalil va faktlar bo'lishi tabiiy, biroq ushbu faktlar ba'zan bir-birini inkor etishi ham mumkin. Bunday vaziyatda jurnalistga mantiqiy fikrlash qobiliyati yordam beradi. Har qanday fikr, dalil yoki faktni baholashda quyidagi savollarga javob izlash maqsadga muvofiq: *Fikr aniqmi? Tanganing ikkinchi tomoni yo'qmi? Ushbu dalillar ilgari tekshirilganmi? Ularga o'zgartirish kiritilmaganmi yoki bosti-bosti qilinmaganmi?*

Shuningdek, jurnalist surishtiruv jarayonida quyidagi savollarni ham ko'rib chiqishi lozim:

— Surishtiruvning asosiy obyekti kim yoki nima? Ularning ortida kimlar turibdi?

— Ushbu surishtiruv jamiyat uchun qay darajada muhim? Uning sog'liqni saqlash, ta'lim, iqtisodiyot, transport yoki siyosatga aloqasi bormi?

— Manbalar hamma uchun ochiqlicha qolganmi yoki yo'qmi?

— Sodir etilgan qonunbuzarlik yoxud jinoyat qay darajada xavfli?

— Buni isbotlash qiyinmi yoki osonmi?

— Surishtiruv jarayoniga qancha byudjet talab etiladi? Mablag' yetarlimi?

— Tergovni davom ettirish uchun qanday ko'nikmalar kerak bo'ladi?

— Tergovni davom ettirish uchun qanday vositalar zarur bo'ladi? [*Kovach 2007: 92*]

Jurnalistning g'oyasi umumiy emas, balki o'ziga xos bo'lishi va u aniq bir muammo bilan bog'liqligiga ishonch hosil qilishi zarur.

Bunga yaqqol misollardan biri sifatida 2015-yilda oshkor qilingan "HSBC hujjatlari"ni ko'rsatish mumkin. Suriyalik jurnalist Ibrohim

Solihga Suriya prezidenti Bashar al-Assadning amakivachchasi, mamlakatdagi yirik monopolist Rami Maxlufga tegishli bo'lgan offshor hisob raqamlarini tekshirish imkoniyati berilgan. Jurnalist Maxlufning isroillik ishbilarmonlar bilan yaqin tijoriy aloqalarini aniqlagan holda, yirik miqdordagi mablag'lar Isroildagi bir qator investitsiya kompaniyalarida yuvilganini fosh etgan [CIJ 2015: 62].

2011-yilda boshlangan Suriya ichki urushi davrida xalq orasida Maxlufning korrupsiyaga aloqadorligi, noqonuniy boyliklar to'plaganligi haqidagi noroziliklar keskin kuchaydi [Human Rights Watch 2011: 71]. Prezident Assad ushbu noroziliklarni yumshatish maqsadida Maxlufning iqtisodiy ta'sirini cheklashga qaror qilgan. Surishtiruv natijasida Maxlufning jinoyatlari bilan birga uning atrofidagi jinoiy guruh — **“zanjiri”** ham oshkor etilgan. Bu guruh tarkibida suriyalik tadbirkorlar, xorijiy investorlar, hatto ayrim yirik siyosatchilar ham bo'lgan [ICIJ: 34].

Fakt va dalillarni oshkor etishda mantiqan yondashilgan surishtiruvlar sirasiga Kun.uz saytida e'lon qilingan “Subyektiv” loyihasining “Kiberjinoyat” haqidagi sonini misol qilish mumkin. Jurnalist Jamshidxon Ziyoxonov va uning jamoasi kiberjinoyat haqida material tayyorlash maqsadida kiberjinoiy guruhlarining Telegram botlari va maxsus kanallariga yashirincha kirishgan.

**Jurnalist:** — Avvallari firibgarlar odamlarning ishonchiga kirish uchun to'g'ridan-to'g'ri suhbatlashgan bo'lsa, hozir bu ishlarning barchasi “online” shakliga o'tib ketdi. Mehnat qilib topgan pulingiz bir zumda o'g'irlab ketilganida “qayerdagi firibgarga aldandim” deb o'zingizni kechira olmaysiz. Lekin bu yerda bittagina firibgar haqida emas, balki butun boshli uyushgan jinoiy guruh haqida so'z ketadi. Bugungi ko'rsatuvimizni tayyorlash uchun biz kiberjinoyatchilar guruhiga bildirmasdan qo'shildik va ularning qilayotgan jinoyatlariga guvoh bo'lib hayratda qoldik. Surishtiruv quyidagi holatdan boshlanadi: ko'pchilik hayotida bir marotaba bo'lsa ham internet orqali biror narsa sotib olishga uringan. O'zbekistonda eng ommabop platforma — OLX. Unda texnikadan tortib ko'chmas mulkka qadar onlayn savdo amalga oshiriladi. 2020-yil pandemiyasi onlayn xaridga bo'lgan talabni keskin oshirdi.

Pandemiya IT sohasida ham katta sakrashga sabab bo'ldi. Masofaviy ishlash imkoniyatlari kengaydi. Ammo shu imkoniyatlar yengillik yaratish bilan birga qora niyatli kiberjinoyatchilar uchun ham yangi yo'llarni ochdi. Jarayon oddiy e'londan boshlanadi: siz telefoningizni sotish uchun OLXga e'lon joylashtirasiz. Oradan ko'p o'tmay sizga Telegram orqali qandaydir “Aynura” yozadi: — “Telefonning narxi menga to'g'ri keladi. Farg'onada yashayman. Yetkazib bersangiz, pulini o'zim to'layman”, — deydi. So'ng sizga havola yuboriladi. Siz shu havola orqali pulni qabul qilishingiz mumkinligi aytiladi. Havolaga o'tasiz — ko'rinishidan haqiqiy pochta yoki to'lov sayti. Go'yoki pulni olish uchun karta ma'lumotlarini kiritasiz. Ammo tugmani bosishingiz bilan kartangizdagi pul yechib olinadi.

Kun.uz surishtiruvi jurnalistlari jinoyatning mayda detallaridan tortib, uning ishlash mexanizmigacha puxta o'rgangan. OLX va Temu kabi onlayn savdo saytlarining faoliyati muntazam kuzatilgan. Kiberjinoyatchilar tilida pulini o'g'irlatgan odam “mamont” deb ataladi — bu sodda yoki e'tiborsiz odam ma'nosidir. Bu turdagi kiberhujumlar ko'pincha e'tiborsizlik oqibatida sodir bo'ladi. Havolaning soxtaligiga

e'tibor bermaslik phishing (fishing emas) deb ataladi. Aslida uni farqlash qiyin emas — sayt manziliga diqqat qilish kifoya. Surishtiruv natijasida Kun.uz jurnalistlari tomonidan bir qator soxta saytlarning nomlari, ularning jinoiy faoliyati, hatto guruh ichida qo'llaniladigan terminologiya ham ochib berildi.

O'g'ri o'zini o'g'ri demaganidek, kiberjinoiyatchilar ham o'zlarini "firibgar" emas, balki "scammer" deb atashadi. Ular o'zlashtirgan mablag'ni "profit", dasturchini esa "coder" deydi. Bu firibgarlik sxemasi oddiy tuyulishi mumkin, ammo bu "biznes" ortida juda katta jamoa turadi. Ular o'zlarini "team", ya'ni "guruh" deb atashadi. Ularning soni 7 mingga yaqin. Taqqoslash uchun: Rossiyadagi tarixiy eng katta kriminal jamoalardan biri — Tambovskiy guruhining atigi 500 a'zosi bo'lgan. Kiberjinoiyatchilar guruhiga esa istagan odam qabul qilinmaydi: faqat Telegram-botdagi maxsus so'rovnomadan o'tganlarga guruhga qo'shilishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, 7 ming nafar a'zo orasida har birining o'z vazifasi mavjud. Ular Telegram platformasini tanlashining asosiy sababi — uning yuqori darajadagi maxfiyligi va ishonchliligidir. Scammerlar barcha qora ishlarini aynan Telegram orqali amalga oshirishadi. Maxsus chatlarda ular kim qancha pulni aldab o'zlashtirgani, kimni qanday savollar qiynayotgani haqida o'zaro ma'lumot almashishadi. Hatto "bugungi kun ishchisi kim bo'lgan?" kabi mavzularni ham muhokama qilishadi. Jamoa tarkibi ham ancha murakkab: bu yerda admin, moderator, hatto kuratorlar mavjud. Chatlarda eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biri — *mamontlar* (ya'ni aldangan odamlar) yuborgan audio xabarlarini tashlab, ularning ustidan kulishdir. Lekin eng asosiy vosita — bu Telegram-bot hisoblanadi. U shunchalik mukammal dasturlashtirilganki, birgina buyruq orqali Yandex, Fargo, Click, BTS kabi istalgan servisning phishing sahifasini yaratish mumkin.

Kun.uz jurnalistlari kiberjinoiyatchilar guruhining ishlash mexanizmini, undagi a'zolarining vazifalaridan tortib, terminologiyasiga qadar chuqur o'rganib chiqqan. Ushbu surishtiruvning maqsadi aniq bo'lib, jamoatchilik uchun tushunarli tarzda yoritilgan.

Ba'zi hollarda kiberjinoiyatchilar mamontlarni ikki marta chuv tushurishadi. Birinchi bosqichda mahsulotga ssilka (havola) orqali to'lov qilishga ko'ndirib, phishing sayt orqali pullarni o'zlashtirishadi. Ikkinchi bosqichda esa *qaytaruvchi* sifatida aloqaga chiqadilar:

— "Biz sizdan asossiz pul yechib olinganini aniqladik", — deya mamontni ishontiradilar.

Dardini kimga aytishni bilmagan mamont esa voqeani vozvraterga batafsil aytib beradi. Ular:

— "Biz sizga pullaringizni qaytarishda yordam beramiz", — deb, yana bir bor karta ma'lumotlarini qo'lga kiritishadi.

Group-IB ma'lumotlariga ko'ra, AQSh, Fransiya, Polsha, Ukraina, Chexiya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston kabi mamlakatlarda jami 40 dan ortiq kiberjinoiy imperiyalar faoliyat yuritmoqda. Ularning yillik pul aylanmasi 6 million AQSh dollariga teng [McNair 2009: 12].

Mamontlardan olingan pullar umumiy kassaga tushadi va oxirida har bir a'zoga ulush sifatida taqsimlanadi. Bu uyushgan jinoiy guruhning rahbari *topic starter* hisoblanadi.

O'zbekistonda ham bir nechta kiberjinoyatchilarning Telegram guruhlari va kanallari faoliyat yuritadi. Ulardan biri — WungTeam. Ushbu guruh atigi ikki oy ichida 1,676 milliard so'm mablag'ni o'zlashtirgan. Firibgarlar mamontlardan o'g'irlangan pullarni avval CW elektron hamyoniga, undan esa kriptovalyuta hisob raqamlariga o'tkazadilar. Ushbu tranzaksiyalar ularning anonimligini to'liq ta'minlaydi.

Scamming shu darajada rivojlanib ketdiki, bugungi kunda u butun boshli industriyaga aylangan. Scammingni o'rgatishga mo'ljallangan maxsus o'quv qo'llanmalar — "manual"lar yaratilgan. Mamont scammerdan shaxsini tasdiqlovchi hujjat talab qilgan holatlarda, firibgarlarning qo'lida minglab odamlarning pasport nusxalari va audio xabarlar mavjud bo'ladi.

Scammerlik ilk bor 2019-yilda Rossiyada paydo bo'lgan. Ammo u yerda uzoq davom etmagan. Internet firibgarlari keyinchalik Belarus, Polsha, Ruminiya, Moldova, Bolgariya va Ukraina bozorlariga kirib borgan. So'ngra Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikistonda ham faoliyat yurita boshlagan.

Afsuski, rivojlanishdan orqada qolgan, hayot darajasi past bo'lgan mamlakatlarda kiberjinoyiy guruhlar ko'proq va samaraliroq ishlayotgan. Buning sabablari qator omillar bilan bog'liq: iqtisodiy tanglik, ishsizlik, raqamli xavfsizlik madaniyatining pastligi va aholining kiberhujumlarga qarshi zaifligi.

Yuqorida keltirilgan surishtiruvda dalil va faktlar bilan ishlashda izchillik va mantiqan yondashuvga alohida e'tibor qaratilgan. Jinoiy guruhning yaratilishidan tortib, uning ishlash mexanizmi va o'g'irlangan mablag'ning qanday aylantirilishi kabi jarayonlar puxta o'rganilgan. Bu esa surishtiruv maqsadining aniqligi, vazifalarning aniq belgilanganligi va metodologik yondashuvning yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi.

### Xulosa

Jurnalistik surishtiruv — bu murakkab, mas'uliyatli va yuqori professionallikni talab qiladigan jarayon bo'lib, unda jurnalist doimo aniqlik va haqqoniylik tamoyillariga amal qilishi zarur. Surishtiruvning ishonchliligi, avvalo, faktlarning tekshirilishi, chuqur tahlil qilinishi va manbalar bilan ishlashda ehtiyotkorlikning ta'minlanishiga bog'liq. Chunki noto'g'ri ma'lumot nafaqat jurnalist yoki tahririyat, balki butun jamiyat uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois surishtiruv jarayoni yuksak mas'uliyat va mantiqan izchil yondashuvni talab etadi.

Jurnalist surishtiruv davomida faktlarni yig'ish bilangina cheklanmaydi, balki ularni tahlil qiladi, solishtiradi va umumlashtiradi. Har bir ma'lumot oddiy auditoriya uchun ham tushunarli bo'lishi, xulosalar esa dalillarga tayangan holda shakllantirilishi kerak. Bu esa o'quvchida ishonch uyg'otadi va surishtiruvning ijtimoiy qadrini oshiradi.

Jurnalistik surishtiruv — axborot yig'ish, uni tahlil qilish va haqiqatni aniqlash bosqichlarini o'zida birlashtirgan tizimli faoliyatdir. Ushbu jarayonning har bir qismi — axborotni tekshirish, baholash va qayta ishlash — jurnalistdan mantiqan izchil fikrlashni talab etadi. Chunki surishtiruv jurnalistikasi nafaqat voqeani yoritadi, balki uning sabablarini, yashirin bog'liqliklarini va ijtimoiy-ta'sirchan oqibatlarini ochib beradi.

Bunday chuqurlik faqat tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil va dalillarga asoslangan yondashuv orqali amalga oshadi.

Bugungi globallashtirish axborot makonida “feyk yangiliklar”, noto‘g‘ri talqinlar va manipulyativ axborotlarning keskin ko‘paygani sharoitida jurnalistning asosiy vazifasi — haqiqatni aniqlash, soxta ma’lumotlarni fosh etish va jamiyatni to‘g‘ri xabardor qilishdir. Shu jihatdan mantiqan yondashuv jurnalist uchun axborot filtri, tahliliy instrument va axloqiy mezon vazifasini bajaradi. Mantiqiy tahlil yordamida jurnalist manbalarni baholaydi, faktlarni solishtiradi va voqealar orasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniq belgilaydi. Natijada surishtiruvda ilgari surilgan xulosalar dalillarga tayangan holda shakllanadi, subyektiv talqinlardan xoli bo‘ladi.

Axborotni tekshirish bosqichida jurnalist taqqoslash, tahlil qilish, mantiqiy qarama-qarshiliklarni aniqlash kabi vositalardan foydalanadi. Baholash jarayonida esa fakt va taxmin o‘rtasidagi farqni belgilaydi, voqeani ko‘p qirrali tahlil qiladi. Qayta ishlash bosqichida axborot mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiriladi, xulosalar dalillar bilan mustahkamlanadi.

Mantiqan yondashuv faqat metod emas — u jurnalistning kasbiy madaniyati va axloqiy pozitsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Har qanday surishtiruvda inson huquqlari, shaxsiy hayot daxlsizligi va ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilish zarur. Mantiqiy xatolar, noto‘g‘ri talqinlar yoki kontekstdan uzib olingan dalillar surishtiruvning ishonchliligiga putur yetkazadi. Shu bois mantiqiy yondashuv — jurnalistning kasbiy halolligi va mas’uliyatining ko‘zgusidir.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy asosda qurilgan surishtiruvlar o‘quvchida yuqori ishonch uyg‘otadi va ijtimoiy muammolarni hal etishda samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ekologik, iqtisodiy yoki ijtimoiy mavzulardagi tahliliy maqolalar dalillarning izchil tizimda taqdim etilishi orqali davlat idoralari va jamoatchilik e’tiborini muhim masalalarga qaratadi. Bu jarayon jamiyatda tanqidiy fikrlashni, axborot madaniyatini va ongli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shunday qilib, jurnalistik surishtiruvda axborotni tekshirish, baholash va qayta ishlashda mantiqan yondashish jurnalistikaning ilmiy, axloqiy va ijtimoiy mohiyatini mujassam etadi. Bu yondashuv jurnalistni haqiqat izlovchi, dalillarni tahlil qiluvchi va jamiyatga fikr madaniyatini olib kiruvchi mutaxassis sifatida shakllantiradi. Mantiqiy asosda qurilgan surishtiruv esa voqealar ketma-ketligi emas, balki ijtimoiy haqiqatni ochib beruvchi mukammal tahliliy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada, surishtiruv jurnalistikasi adolat, mas’uliyat va haqiqat tamoyillarini himoya qiladi, mantiqiy yondashuv esa ushbu jarayonning asosiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

Do‘stmuhammad X. Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy-metodologik tahlil: monografiya. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. — 176 b.

- Elamova D. Faktcheking bo'yicha muhim tadqiqotlar // Fan.uz. — Toshkent, 2024. — URL: <https://factchecknet.uz/2024/09/10/faktcheking-boyicha-muhim-tadqiqotlar/> (murojaat sanasi: 09.09.2025).
- FactCheck.org. About Us // Annenberg Public Policy Center. — URL: <https://www.factcheck.org> (murojaat sanasi: 09.12.2025).
- Graves L. Deciding What's True: The Rise of Political Fact-Checking in American Journalism. — New York: Columbia University Press, 2016. — 280 p.
- Human Rights Watch. Syria: Events of 2011. — URL: <https://www.hrw.org> (murojaat sanasi: 09.12.2025).
- ICIJ. Report on Syrian elites. — URL: <https://www.icij.org> (murojaat sanasi: 09.12.2025).
- International Consortium of Investigative Journalists. HSBC Files. — 2015. — URL: <https://www.icij.org> (murojaat sanasi: 09.12.2025).
- Kovach B., Rosenstiel T. The Elements of Journalism. — New York, 2007. — 268 p.
- Kovach B., Rosenstiel T. The Elements of Journalism. — New York: Three Rivers Press, 2014. — 384 p.
- McNair B. Journalism and Democracy. — London: Routledge, 2009. — 192 p.
- Meliboyev A. Jurnalist surishtiruv — davr talabi: xalqaro konferensiya materiallari. — Farg'ona, 2023. — 180 b.
- Mo'minov F., Nurmatov A. va boshq. Jahon jurnalistikasi tarixi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. — 327 b.
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Matbuot xizmati. — URL: [https://t.me/Sh\\_Giyasov\\_IIV\\_matbuot\\_kotibi](https://t.me/Sh_Giyasov_IIV_matbuot_kotibi) (murojaat sanasi: 09.12.2025).
- O'zbekiston Respublikasi va BAA o'rtasidagi ekstraditsiya to'g'risidagi shartnoma. 2014-yil 11-noyabr.
- Reuters Fact Check. Photo does not show Bill Gates giving interviewer a blank check. — URL: <https://www.reuters.com/fact-check> (murojaat sanasi: 09.12.2025).
- Silverman C. Verification Handbook. — Maastricht: European Journalism Centre, 2014. — 120 p.
- Stephens M. A History of News. — Oxford: Oxford University Press, 1997. — 148 p.
- Toshpo'latova N. Tahliliy jurnalistika. — Toshkent: O'zkitobsavdo, 2019. — 192 b.

### References

Dostmuhammad, X. (2007). *Jurnalistning kasb odobi muammolari nazariy metodologik tahlil* (Problems of professional ethics of a journalist theoretical and methodological analysis), Tashkent, Yangi asr avlodi. (In Uzb.)

- Elamova, D. (2024). *Fan.uz*, available at: <https://factchecknet.uz/2024/09/10/faktcheking-boyicha-muhim-tadqiqotlar/> (accessed 09.09.2025). (In Uzb.)
- FactCheck.org. (n.d.). *Annenberg Public Policy Center*, available at: <https://www.factcheck.org> (accessed 09.12.2025).
- Graves, L. (2016). *Deciding What's True The Rise of Political Fact Checking in American Journalism*, New York, Columbia University Press.
- Human Rights Watch. (2011). *Syria Events of 2011*, available at: <https://www.hrw.org> (accessed 09.12.2025).
- ICIJ. (n.d.). *Report on Syrian elites*, available at: <https://www.icij.org> (accessed 09.12.2025).
- International Consortium of Investigative Journalists. (2015). *HSBC Files*, available at: <https://www.icij.org> (accessed 09.12.2025).
- Kovach, B., & Rosenstiel, T. (2007). *The Elements of Journalism*, New York.
- Kovach, B., & Rosenstiel, T. (2014). *The Elements of Journalism*, New York, Three Rivers Press.
- McNair, B. (2009). *Journalism and Democracy*, London, Routledge.
- Meliboyev, A. (2023). *Jurnalist surishtiruvchi davr talabi* (Investigative journalism as a demand of the time). Proceedings of the International Conference, Fergana. (In Uzb.)
- Mominov, F., & Nurmatov, A. (2008). *Jahon jurnalistikasi tarixi* (History of World Journalism), Tashkent, Fan va texnologiya. (In Uzb.)
- Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan Press Service. (n.d.). available at: [https://t.me/Sh\\_Giyasov\\_IIV\\_matbuot\\_kotibi](https://t.me/Sh_Giyasov_IIV_matbuot_kotibi) (accessed 09.12.2025). (In Uzb.)
- O'zbekiston Respublikasi va BAA o'rtasidagi ekstraditsiya to'g'risidagi shartnoma. (2014). November 11. (In Uzb.)
- Reuters Fact Check. (n.d.). *Reuters*, available at: <https://www.reuters.com/fact-check> (accessed 09.12.2025).
- Silverman, C. (2014). *Verification Handbook*, Maastricht, European Journalism Centre.
- Stephens, M. (1997). *A History of News*, Oxford, Oxford University Press.
- Toshpolatova, N. (2019). *Tahliliy jurnalistika* (Analytical Journalism), Tashkent, Ozkitobsavdo. (In Uzb.)